

O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

Qarshi muxandislik - iqtisodiyot instituti

Magistratura bo‘limi



**Qo‘lyozma huquqida
UDK 622.256**

Mustafojev G‘olibjon Maxmudovich

**«Gazning nobarqaror filtratsiyasini hisoblash usulini takomillashtirish»
(«Sho`rtan» konlari misolida)»**

**Mutaxassislik: 5A311901 – Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan
foydalanish**

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar
_____X.Jabborov
«__»_____2015 йил
Ilmiy maslahatchi
t.f.n., dots. S.Eshev**

Qarshi – 2015

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Mutaxassislik: 5A311901 **“Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan
foydalanish”**

**“Нефт ва газ конларини ишга
tushirish va ulardan
foydalanish” kafedrası**

Ilmiy rahbar: X.Jabborov

2013-2015 o`quv yili

Magistrant: **Mustafoev**

G`olibjon Maxmudovich

**«Gazning nobarqaror filtratsiyasini hisoblash usulini takomillashtirish»
(«Sho`rtan» konlari misolida) mavzusidagi dissertatsiyaning**

ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: Konlar ratsional ishlanishining kompleks masalalarini yechishda qatlam va quduqlarning gidrodinamik tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Gidrodinamik tadqiqotlar ma`lumotlariga ko`ra gazkondensat qatlamlarining statsionar va nostatsionar filtratsion xususiyatlari aniqlanishining haqiqiyligi ishlatish geologo-gidrodinamik model qurilishi, ishlatish loyihasi va ishlatish nazoratining samaradorliklari natijalarida aks etadi.

Ishning maqsadi va vazifalari: Takomillashgan texnologiyalar va tadqiqotlar hisobiga hamda statsionar va nostatsionar filtratsiyalar xususiyatlariga bog`liq holda quduqlardagi gidrodinamik tadqiqot natijalari bo`yicha gazkondensat qatlami va quduqlardagi olinadigan ma`lumotlarning sifatini oshirish.

Bu ishning maqsadidan quyidagi tadqiqot masalalari shakllandi:

1.Filtratsion xususiyatlarini hisobga olgan holda gidrodinamik tadqiqotlar natijalarining haqqoniyligiga ta`sir qiladigan omillarning tahlili.

2. Siqiluvchan (gazkondensat) suyuqlik va gazning barqaror va nobarqaror filtratsiyalarini modellash.

3. "Shurtan USHK" da o'tkazilgan gazodinamik tadqiqot natijalarining tahliliga ko'ra filtratsiyaning nostatsionar rejimlarida quduqlarni tadqiq qilishning gazogidrodinamik usuli qarab chiqiladi.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti: "Shurtan USHK" gaskondensat konlarida gidrodinamik tadqiqotlarni o'tkazish.

Tadqiqot uslubi: tadqiqotlar qatlam va quduqlar tadqiqot etilishining mavjud usullariga ko'ra o'tkazildi.

Ishning ilmiy yangiligi: tadqiqotlar natijalarida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

1. Filtratsiyaning nostatsionar rejimida olingan gidrodinamik tadqiqotlar natijalarining haqqoniyligiga ta'sir qiladigan omillarning tahlili o'tkazildi.

2. Gaskondensatlarning g'ovak muhitlardagi statsionar va nostatsionar filtratsiyalarining modellari keltirildi.

3. Filtratsiyaning nostatsionar rejimlarida ishlaydigan quduqlarni tadqiq qilishning gazogidrodinamik usuli taklif etildi.

Ishning amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalaridan gaskondensat konlarini gidrodinamik tadqiqotlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotlarning samaradorligi: Taklif etilgan usulni "Shurtan USHK" gaskondensat konlaridagi gidrodinamik tadqiqotlashlarda foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertatsiya ishining hajmi va tarkibi-Magistrlik dissertatsiya ishi kirish, 3-bob, 15-rasm, 1-jadval, 5-formula, 40-adabiyotlar, internet saytlari, 84-sahifa, xulosalardan iborat.

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
KARSHI ENGINEERING ECONOMIC INSTITUTE**

Occupation: 5A311901 "Design and operation of oil and gas fields"

**Department of "Design and
operation of oil and gas fields"**

Supervisor: Jabborov X

2013-2015 Academic Year

**Magistrant Mustafoyev G'olibjon
Maxmudovich**

ABSTRACT

**master's thesis on «Improving the method for calculating unsteady gas
filtration» (in the case of Shurtan deposits)»**

Relevance of the topic:

Hydrodynamic research of wells and layers plays an important role in solving complex issues of rational exploitation of deposits.

According to hydrodynamic research condensate segments of stationary and nonstationary infiltration characteristics diagnostics will be displayed in using the actual construction of geological and hydrodynamic model and the effectiveness of oversight of the use of the project results.

The main purpose and objectives of the study: Improving the quality of the information from the wells and condensate layer due to improved technology and research, as well as wells depending on the results of the research on the hydrodynamic properties of stationary and nonstationary filtration.

This work formed the following research:

1. Filtration, taking into account the characteristics of hydrodynamic analysis of the factors that may affect credibility of the results of the research.
2. Modelling stationary and nonstationary filtration of compressible (condensate) liquids and gas.

3. There will be given the method of gas and hydrodynamic stationary and nonstationary filtration models according to the analysis of the results of the research held at “Shurtan US”.

Object and subject of research: Conducting research on the hydrodynamic gas condensate field Shurtan US.

Research Methods: The study carried out by traditional methods for the formation and wells.

Scientific novelty: As a result, the following scientific research results:

1. There has been conducted the research of the factors that may affect credibility of the results of hydrodynamic analysis in nonstationary mode filtration.
2. There has been given the stationary and nonstationary filtration models in gas condensate loose environments.
3. There has been proposed a method of conducting research for wells which works in nonstationary filtration regime.

The practical significance: Can be used from the results of the research to conduct hydrodynamic studies of condensate field.

Effectiveness of the results: Can be used from proposed method to conduct hydrodynamic studies of condensate fields of “Shurtan US”.

«TASDIQLAYMAN»
«NGKIT va UF» kafedrası mudiri
t.f.n., dots. N.X.Ermatov
«____» _____ 2015 yil

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI YOZISH BO‘YICHA
REJA – TOPSHIRIQLAR

Qarshi muhandislik—iqgisodiyot instituti Magistratura Kengashining «2013» yil «21» noyabrdagi 519/T - sonli qarori bilan tasdiqlangan «NGKIT va UF » kafedrası bo‘yicha "Gazning nobarqaror filtratsiyasini hisoblash usulini takomillashtirish" ("Sho‘rtan" konlari misolida) mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi X.Jabborov ilmiy rahbarligida magistr G.M Mustafoyev tomonidan tugallangan holda «20» may 2015 yilda «NGKIT va UF» kafedrasiga dastlabki himoya uchun taqdim etilsin.

Tadqiqot ishida korxonaning bir necha yillik hisobotlari, statistik ma’lumotlari, huquqiy meyoriy hujjatlaridan foydalaniladi.

Ishda hisoblash jadvallari, shakliy sxemalar va chizmalar berilishi ko‘zda tutiladi.

Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki nusxasini tugallash jadvali

1-bob. Konlarda gazokondensat va filtratsiya muammolari o‘rganilishining hozirgi paytdagi holati - «2013-2014» yil noyabr-aprel oyida

2-bob. Siqiluvchan suyuqlik va gazning g‘ovak muhitdagi barqaror va nobarqaror filtratsiyalarini modellash. - «2015» yil may-aprel oyida

3-bob. Sho‘rtan neftgaz” ushk konlarida gazning nobarqaror filtratsiyasini tadqiqot etish va ularni hisoblash usullarini kon ma’lumotlari asosida o‘rganish- «2014-2015» yil noyabr-aprel oyida

Dissertatsiya «NGKIT va UF » kafedrasida 2015 yil «____» mayda o‘tgan dastlabki himoyasida ilmiy rahbar tomonidan berilgan topshiriqlar;

Topshiriqlar qabul qilindi: _____

(talabanning imzosi, sana)

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Mutaxassislik: 5A311901 **“Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan
foydalanish”**

**“Нефт ва газ конларини ишга
tushirish va ulardan
foydalanish” kafedrası**

2013-2015 o`quv yili

Ilmiy rahbar: X.Jabborov

Magistrant: Mustafoev

G`olibjon Maxmudovich

**«Gazning nobarqaror filtratsiyasini hisoblash usulini takomillashtirish»
(«Sho`rtan» konlari misolida) mavzusidagi dissertatsiyaning**

ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: Konlar ratsional ishlanishining kompleks masalalarini yechishda qatlam va quduqlarning gidrodinamik tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Gidrodinamik tadqiqotlar ma`lumotlariga ko`ra gazkondensat qatlamlarining statsionar va nostatsionar filtratsion xususiyatlari aniqlanishining haqiqiyligi ishlatish geologo-gidrodinamik model qurilishi, ishlatish loyihasi va ishlatish nazoratining samaradorliklari natijalarida aks etadi.

Ishning maqsadi va vazifalari: Takomillashgan texnologiyalar va tadqiqotlar hisobiga hamda statsionar va nostatsionar filtratsiyalar xususiyatlariga bog`liq holda quduqlardagi gidrodinamik tadqiqot natijalari bo`yicha gazkondensat qatlami va quduqlardagi olinadigan ma`lumotlarning sifatini oshirish.

Bu ishning maqsadidan quyidagi tadqiqot masalalari shakllandi:

1.Filtratsion xususiyatlarini hisobga olgan holda gidrodinamik tadqiqotlar natijalarining haqqoniyligiga ta`sir qiladigan omillarning tahlili.

2. Siqiluvchan (gazkondensat) suyuqlik va gazning barqaror va nobarqaror filtratsiyalarini modellash.

3. "Shurtan USHK" da o'tkazilgan gazodinamik tadqiqot natijalarining tahliliga ko'ra filtratsiyaning nostatsionar rejimlarida quduqlarni tadqiq qilishning gazogidrodinamik usuli qarab chiqiladi.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti: "Shurtan USHK" gaskondensat konlarida gidrodinamik tadqiqotlarni o'tkazish.

Tadqiqot uslubi: tadqiqotlar qatlam va quduqlar tadqiqot etilishining mavjud usullariga ko'ra o'tkazildi.

Ishning ilmiy yangiligi: tadqiqotlar natijalarida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

1. Filtratsiyaning nostatsionar rejimida olingan gidrodinamik tadqiqotlar natijalarining haqqoniyligiga ta'sir qiladigan omillarning tahlili o'tkazildi.

2. Gaskondensatlarning g'ovak muhitlardagi statsionar va nostatsionar filtratsiyalarining modellari keltirildi.

3. Filtratsiyaning nostatsionar rejimlarida ishlaydigan quduqlarni tadqiq qilishning gazogidrodinamik usuli taklif etildi.

Ishning amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalaridan gaskondensat konlarini gidrodinamik tadqiqotlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotlarning samaradorligi: Taklif etilgan usulni "Shurtan USHK" gaskondensat konlaridagi gidrodinamik tadqiqotlashlarda foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertatsiya ishining hajmi va tarkibi-Magistrlik dissertatsiya ishi kirish, 3-bob, 15-rasm, 1-jadval, 5-formula, 40-adabiyotlar, internet saytlari, 84-sahifa, xulosalardan iborat.

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
KARSHI ENGINEERING ECONOMIC INSTITUTE**

Occupation: 5A311901 "Design and operation of oil and gas fields"

**Department of "Design and
operation of oil and gas fields"**

Supervisor: Jabborov X

2013-2015 Academic Year

**Magistrant Mustafoyev G'olibjon
Maxmudovich**

ABSTRACT

**master's thesis on «Improving the method for calculating unsteady gas
filtration» (in the case of Shurtan deposits)»**

Relevance of the topic:

Hydrodynamic research of wells and layers plays an important role in solving complex issues of rational exploitation of deposits.

According to hydrodynamic research condensate segments of stationary and nonstationary infiltration characteristics diagnostics will be displayed in using the actual construction of geological and hydrodynamic model and the effectiveness of oversight of the use of the project results.

The main purpose and objectives of the study: Improving the quality of the information from the wells and condensate layer due to improved technology and research, as well as wells depending on the results of the research on the hydrodynamic properties of stationary and nonstationary filtration.

This work formed the following research:

4. Filtration, taking into account the characteristics of hydrodynamic analysis of the factors that may affect credibility of the results of the research.

5. Modelling stationary and nonstationary filtration of compressible (condensate) liquids and gas.

6. There will be given the method of gas and hydrodynamic stationary and nonstationary filtration models according to the analysis of the results of the research held at “Shurtan US”.

Object and subject of research: Conducting research on the hydrodynamic gas condensate field Shurtan US.

Research Methods: The study carried out by traditional methods for the formation and wells.

Scientific novelty: As a result, the following scientific research results:

3. There has been conducted the research of the factors that may affect credibility of the results of hydrodynamic analysis in nonstationary mode filtration.

4. There has been given the stationary and nonstationary filtration models in gas condensate loose environments.

3. There has been proposed a method of conducting research for wells which works in nonstationary filtration regime.

The practical significance: Can be used from the results of the research to conduct hydrodynamic studies of condensate field.

Effectiveness of the results: Can be used from proposed method to conduct hydrodynamic studies of condensate fields of “Shurtan US”.

KIRISH

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan neft va gaz sanoati xodimlari oldiga qo'yilgan vazifalar bajarilishi buyicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan istiqbolli reja tuzib chiqilib, bu reja bugun, soha mutaxassislari uchun dasturil amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi payttga kelib amalda mamlakat neft va gaz qazib chiqarish va qayta ishlash mustaqil tarmoqqa aylanib ulgurib, o'tgan yillar yakunlariga ko'ra Respublikamiz qazib olinayotgan gaz mahsulotlarining bir qismini chet elga eksport qilmoqda.

Endilikda O'zbekiston neft va gaz sanoati mamlakat iqtisodiyotining eng yirik tarmog'iga aylandi. Ushbu o'rinda o'z navbatida «Sho'rtaneftegaz» unitar shu'ba korxonasining mamlakatimiz iqtisodiyotiga qo'shayotgan xissasi juda salmoqli ekanligini ta'kidlamog'imiz shart. Hozirgi zamonda neft va gaz mahsulotlari ishlab chikarish da asosiy xom-ashyo hisoblanadi va bu xom-ashyoga bo'lgan talab kun sayin oshib bormoqda. Chunki texnika va texnologiyaning, iqtisodiyotimizning rivojlanishi respublikamizda qazib chiqarilshayotgan neft va gaz mahsulotlarga bog'liqdir.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish. texnik va texnologik yaxshilash, uning raqobatbardoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustivor loyihalarni amalga oshirish bo'yicha Dasturi ishlab chiqilmoqda. Shu borada, dastlabki hisob - kitoblarga ko'ra, umumiy qiymati 24 milliard AQSh dollaridan ziyod bo'lgan qariyb 300 ta investitsiya loyihasi ustida ishlanmoqda.

Dasturga kiritilishi mo'ljallanayotgan bu loyihalar avvalambor yoki elektr-energetika, kimyo, neft-gazni qayta ishlash, metallurgiya tarmoqlariga, yengil va to'qimachilik sanoati. qurilish materiallari sanoati, mashinasozlik va boshqa sohalarga tegishlidir.

O'zbekistonning kelajagi, ravnaqi va iqtisodiyotining rivojlanishida neft va gaz mahsulotlari muhim o'rin egallaydi. Bu sanoat tarmog'i iqtisodiyotimizning

katta ulushini tashkil etadi. Shunday ekan, bu sanoat tarmog'ini har tomonlama rivojlantirish. yuksaltirish shu sohada ishlaydigan xar bir kishining burchidir. Hozirgi kunda shu sohada xizmat qilib kelayotgan mutaxassislar va ishchilar oldida bir talay vazifalar turibdi. Bu vazifalarga neft, gaz va boshqa qazilma boyliklarini qazib olish sur'atlarini oshirish. qazib olish vaqtida yer ostida qolib ketayotgan qoldiq neftni ham chiqarib olish, qazib olish vaqtida yer osti tuzilmasini buzmaslik, qazib olingan mahsulotni iste'molchilarga tez va arzon narxlarda yetkazib berish va boshqa masalalar kiradi.

“Shurtan” USHK gaz konlaridagi qatlam va ishlayotgan quduqlarda nostatsionar filtratsiyani va mahsuldorlikni oshirish buyicha bajarilgan ishlar tahlilini o'rganish va takliflar ishlab chiqish maqsadida, magistrlik dissertatsiya ishiga “Gazning nobarqaror filtratsiyasini hisoblash usulini takomillashtirish» («Sho`rtan» konlari misolida” mavzusida ilmiy izlanishlar olib borildi va amaliy natijalarga erishildi.

Konda o'tkazilgan gidrodinamik tadqiqotlarga asosan, joriy yilda , konda amalda bir qator geologik-texnologik tadbirlar ishlab chiqilib, bu tadbirlar samarali natija berdi va konlarda qo'shimcha mahsulot olishga erishildi.

Quduqlarning joriy xolatini nazorat etish, ulardan olinadigan mahsulot miqdorini belgilash va ularning ishlash texnologik rejimini tuzish maqsadida tadqiqot ishlari olib boriladi.

Quduqning ishlash rejimini o'zgartirish (mahsulot miqdorini oshirish yoki kamaytirish) bu quduqning ishlatilish usuliga bog'liq. Masalan, favvora usulida ishlaydigan quduqlarda shtuser diametrini o'zgartirib, kompressor usulida ishlaydigan quduqlarda ishchi agentining nisbiy sarflanishini o'zgartirib, chuqurlik nasosi usulida ishlaydigan quduqlarda tebratma dastgoh parametrlarini o'zgartirib mahsulot miqdorini boshqarish mumkin. Neft va gaz ishlarida gidrodinamik tadqiqot ishlarini qo'llash va avzalliklarini aniqlash ishning maqsadidan iborat.

Mavzuning dolzarbligi: Konlar ratsional ishlanishining kompleks masalalarini yechishda qatlam va quduqlarning gidrodinamik tadqiqotlari muhim

ahamiyat kasb etadi. Gidrodinamik tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra gazkondensat qatlamlarining statsionar va nostatsionar filtratsion xususiyatlari aniqlanishining haqiqiyliги ishlatish geologo-gidrodinamik model qurilishi, ishlatish loyihasi va ishlatish nazoratining samaradorliklari natijalarida aks etadi.

Ishning maqsadi va vazifalari: Takomillashgan texnologiyalar va tadqiqotlar hisobiga hamda statsionar va nostatsionar filtratsiyalar xususiyatlariga bog'liq holda quduqlardagi gidrodinamik tadqiqot natijalari bo'yicha gazkondensat qatlami va quduqlardagi olinadigan ma'lumotlarning sifatini oshirish.

Bu ishning maqsadidan quyidagi tadqiqot masalalari shakllandi:

1. Filtratsion xususiyatlarini hisobga olgan holda gidrodinamik tadqiqotlar natijalarining haqqoniyligiga ta'sir qiladigan omillarning tahlili.

2. Siqiluvchan (gazkondensat) suyuqlik va gazning barqaror va nobarqaror filtratsiyalarini modellash.

3. "Shurtan USHK"da o'tkazilgan gazodinamik tadqiqot natijalarining tahliliga ko'ra filtratsiyaning nostatsionar rejimlarida quduqlarni tadqiq qilishning gazogidrodinamik usuli qarab chiqiladi.

Ishning ilmiy yangiligi: tadqiqotlar natijalarida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

1. Filtratsiyaning nostatsionar rejimida olingan gidrodinamik tadqiqotlar natijalarining haqqoniyligiga ta'sir qiladigan omillarning tahlili o'tkazildi.

2. Gazkondensatlarning g'ovak muhitlardagi statsionar va nostatsionar filtratsiyalarining modellari keltirildi.

3. Filtratsiyaning nostatsionar rejimlarida ishlaydigan quduqlarni tadqiq qilishning gazogidrodinamik usuli taklif etildi.

Ishning amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalaridan gazkondensat konlarini gidrodinamik tadqiqotlashda foydalanish mumkin.

Ishning aprrobatsiyasi: Dissertatsiya ishining mazmuni quyidagi konferensiyalarda ma'ro'za qilingan:

- Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlari yosh olim va talabalari ishtirokidagi hududiy ilmiy-amaliy anjumanida. Kar IEI.2014;

-QarMII professor-o‘qituvchilarning ilmiy-amaliy konferensiyasida. 2014 yil 4-5 iyul.

Publikatsiya: Ishning asosiy mazmuni ushbu

1.Xaydarov A.U., Mustafoyev G.M. Linearizatsiya uravneniye neustanovivsheyeya filtratsii gaza i yego resheniye.-//Innovatsionniye texnologii. №3-2014. Karshi, 2014g, str.- 11-14;

2.Xaydarov E.U., Mustafokulov G.M. i dr. Gidrodinamicheskiye metodi issledovaniye gazovix nesovershennix skvajin.- Sb. regionalnoy nauchno-prakticheskoy konferensii molodix uchenix i studentov Kashkadarinskoy i Surxandarinskoy oblasti. Kar IEI.2014. str.309-312;

3. Eshev S.S., Xaydarov A.U., Mustafoyev G.M. Sel modelirovaniya neftyanix plastov. – Sb. materialov nauchno-prakticheskoy konferensii professorov-prepodavateley Kar.IEI. Karshi, 2014g. Str.178-182, jurnal va to‘plamlarda chop etilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining hajmi va tarkibi - Magistrlik dissertatsiya ishi kirish, 3-bob, 13-rasm,14-jadval, 40-adabiyotlar, internet saytlari, 89-bet va xulosalardan iborat.

1. KONLARDA GAZOKONDENSAT VA FILTRATSIYA MUAMMOLARI O`RGANILISHINING HOZIRGI PAYTDAGI HOLATI

1.1. Suyuqliklar filtratsiyasiga doir adabiyotlar tahlili.

Filtratsiy protsesiga XIX asr o`rtalarida fransuz muhandisi G.Darsi tomonidan asos solingan. 1856 yilda tajribalar yordamida filtratsiya hodisalarini o`rganib, o`zining Darsi qonunini yaratdi.

Filtratsiya nazariyasining rivojlanishiga Ch.Slixter tomonidan hissa qo`shildi. U ideal va fiktiv (yasama) grunt tushunchalarini kiritib, fiktiv gruntning g`ovakligi hajmiy va yuzali bo`shliqlar zarrachalarining diametriga bog`liq emas, balki ularning zich joylashishiga bog`liq ekanligini ko`rsatadi.

XIX asr oxirida N.U. Jukovskiy «Yer osti suvlari harakati haqida nazariy tadqiqot» ilmiy ishini e`lon qildi. U birinchilardan bo`lib, filtratsiya differentsial tenglamasini keltirib chiqardi. U bosim koordinatlar funksiyasi sifatida Laplas tenglmasini qanoatlantirishini, issiqlik o`tkazuvchanlik va filtratsiyani matematik analogiyada ko`rsatdi.

Yer osti gidravlikasi sohasida nazariy tadqiqotlar I.Dyupyui tomonidan olib borildi. Uning ishlarida Darsining tajribaviy qonuni gidravlik asoslab berildi.

1856 yildan F.Forxgeymer ko`pgina yer osti gidravlikasi masalalarining yechimi uchun potentsial nazariya usulidan keng foydalandi.

1920 yillardan boshlab yer osti suvlari oqimi masalalari bilan bir qatorda yangi yo`nalish «gazneft» yer osti gidravlikasi ham rivojlana boshladi. Bu yangi yo`nalishga birinchilardan bo`lib akad. L.S.Leybenzon asos soldi.

L.S.Leybenzon nazariy va tajriba tadqiqotlari asosida birinchi bo`lib g`ovak muhitda gaz va gaz harakatining differentsial tenglamasini keltirib chiqardi[54].

U qatlamlardagi neft va gaz zahiralarini hisoblash usullarini, neft va gazni suv bilan siqib chiqarish masalalarini matematik tahlil qildi.

Keyingi neftgaz yer osti gidromexanikasining rivojlanishiga akad. L.S.Leybenzon shogirdlari hissa qo`shdilar. Neftgaz suv tashuvchi qatlamda filtratsiya nazariyasini rivojlanishida akad. S.A.Xristianovich, professorlar

B.B.Lapuk, I.A.Charny, V.N.Shelkachev, K.S. Basniev, G.B. Pixachevlar o'zlarining katta hislarini qo'shdilar[8].

Avtor V.M.Zaychenko [17] tomonidan real qatlam sharoitida termobarik g'ovak muhitda gazokondensat flyuidlar misolida uglevodorod aralashmalarining ikki fazali hisoblash modeli ishlab chiqilgan. Har xil chastota va amplitudali akustik to'lqinlarning oqim xarakteriga ta'siri tadqiqot qilingan. Jarayon o'xshashlik kriteriyalari hosil qiligan, gazokondensat probka buzilishini minimal vaqtini ta'minlovchi to'lqin ta'sirining rezonans chastotalari va amplitudalari topilgan.

V.M. Zaychenko, V.V. Kachalov, I.L. Maykov, G.F. Sokol va V.M. Torchinskiylar [18] gazokondensat qatlamning tub osti zonasiga tushadigan retrograd kondensatga issiqlik ta'siri matematik va fizik modellash usuli bilan tadqiqot etishgan. Quduqli qizitgich bilan qatlam tub osti zonasining qizdirilishi bo'yicha hisobiy natijalar keltirishgan. Issiqlik tarqalish to'lqinlari parametrlarini baholash keltirilgan. Yuqori qaynaydigan komponent debitining oshirish imkoniyatlari ko'rsatilgan. OIVT da ishlab chiqilgan "Plast" eksperimental stendining konstruksiyasi ifodalangan. Gazokondensat aralashmali modelga termik ta'siri bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalari keltirilgan. Gazokondensat chiqarish koeffitsiyentini oshirish usuli sifatida quduq oldi zonasida termik ta'sirni qo'llash mumkinligi to'g'risidagi xulosalar berilgan.

Avtorlar V.I. Lapshin, A.N. Volkov, I.M. Shafiyev, A.D. Lyugay, A.A. Konstantinovlar [26] qatlam gazakondensat tizimlarining fazali harakatdagi o'zlarining tutishiga tabiiy gaz namligi tarkibining ta'sirini baholashdagi analitik va eksperimental tadqiqotlarning natijalarini keltiradilar. Tabiiy gaz namligiga tabiiy gazdagi serovodorod va uglerod ikki okisi bo'lishi ta'sirining fazali muvozanat qurilmasida o'tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

B.A. Grigoryev, D.M. Orlov, N.V. Savchenko, A.YE. Rijovlar [13] Achimov yotqiziqdagi kam o'tkazuvchanli jins-kollektorlar orqali bo'ladigan gaz filtratsiyasini tadqiqot etishgan. Gaz sarfining bosim gradiyentiga bog'liqligining chiziqli xakteri o'rnatilgan. Tog' jinslari kuchlanish-

deformatsiyali holatlari o'zgarishida NGD effektining hosil bo'lish sharoitlarida gaz filtratsiyasining xususiyatlari chuqur o'rganilgan. Effektiv bosimning oshishi bilan NGD kattaligining ortishi va tadqiqot o'tkazilgan bosim gradiyentlarining diapozonlarida gaz o'tkazuvchanlik kamayishi kuzatiladi.

Avtor Kovalev A.L [25] Quduqqa gaz oqimlarining oqib kelishi parametrlarini aniqlashning usullari keltirilgan. Ularga gaz sarfi va tub bosim dinamikasi bo'yicha o'tkazilgan nostatsionar gazodinamik tadqiqotlar natijalariga ko'ra kvadrat qarshiliklar koeffitsiyenti va ularining ta'sir funksiyalari yoritilgan. "Mildjin" GKM quduqlarida o'tkazilgan tajriba natijalarining ishlanmalari misol qilib keltirilgan. bilogarifmik diagnostik egri chiziqqa ta'sir funksiyani qayta o'zgartish orqali qo'shimcha informatsiyani olish mumkinligi ko'rsatilgan.

S.YE. Gribennikova [14] Qaraladigan ilmiy ish indikator va tiklanish egri chiziqlarini qurish usuli tadqiqotlari natijalarining tahliliga bag'ishlangan. Kon tadqiqotlari maliyotidan ma'lumki indikator to'g'ri chizig'i va bosim tiklanish egri chiziqlaridan aniqlanadigan qatlam o'tkazuvchanligi va suyuqlik o'tkazuvchanligi, ko'p hollarda bir-birlaridan sezilarli darajada farqlanadilar. Maqolada ularning farqlari ilmiy asoslab berilgan.

Real qatlamdagi suyuqlik va gaz harakatiga oid ma'lumotlar asosida yer osti gidrodinamikasining u yoki bu murakkab masalalari o'rganilmoqda, hamda ularning yechimlari matematik usullar yordamida topilmoqda.

Tabiiy yer osti qatlam suvlari mavjud. Yotqiziqlardan neft va gaz olinishi bilan qatlamda suyuqlik va gazning harakati boshlanadi. Bu harakat o'ziga xos xususiyatlar bilan quvur yoki ochiq o'zandagi harakatlardan farqlanadi. G'ovak yoki yoriqsimon muhitda ularni harakat xususiyatlarini bilish neft va gaz konlarini samarali ishlatish uchun zarur. Qatlamning neft va gaz berish jarayonini qatlamning o'zida sodir bo'ladigan fizik - kimyoviy hodisalar bilan kuzatiladi. Agar suyuqlik harakati tor tirqishlar (kanallar va mayda yoriqlar) bo'yicha bo'lsa, suyuqlik zarrachasi harakatlanadigan mayda kanallar devorlarida, suyuqlik molekulasi va qattiq jism o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida, tog' jinsi ichida sirtqi

hodisalar ro'y beradi. Gaz bosimi o'zgarishida qatlamlarda tabiiy gaz suyuqliklarda eriydi yoki eritmadan ajralib chiqadi.

Suyuqlik va gazning qatlamlardagi harakati xususiyatlari yuqori qatlamli harorat va bosimlari bilan tushuntiriladi. Bundan kelib chiqadiki, neft yoki gaz konini ratsional ishlatishda, nafaqat yer osti gidrodinamikasini bilish, balki geologiya, geofizika, qatlam fizikasi va boshqa fanlarni ham bilish kerak bo'ladi.

Hozirgi vaqtda yangi neft va gaz konlarini loyixalashtirish va ishlatishda, hamda quduqlardan foydalanishda filtratsiya qonunlarini qo'llamasdan tasavvur etib bo'lmaydi. Berilgan qatlamda quduqlarni qanday joylashtirish kerak; qatlamga nechta quduq va ular qanday ketma-ketlikda kiritilishlari kerak; ularda qanday ish rejimini saqlab turish kerak; bosimni saqlab turish uchun qatlamga qancha miqdorda suv haydash kerak; qatlamga suyuqlik yoki gaz harakatini yo'naltirish va rostlash kerak, bular va bunga o'xshash ko'pgina savollar filtratsiya qonuniyatlari asosida yechiladi.

Bu savollarning to'g'ri yechilishi butun neft qazib chiqarish rayonlarining neft va gaz ishlab chiqarish va iqtisodiy effektiga bog'liq. Buning uchun neftgaz tashuvchi qatlamlardagi yer osti oqimlarning qonuniyatlarini bilish kerak. Qatlam gidrodinamik masalalari bilan Respublikamizdagi va boshqa davlatlardagi ilmiy-tekshirish institutlari shug'ullanadilar.

1.2. Konlarda neft, gaz va kondensatlarning o'zgarish qonuniyatlari

Neft, gaz va kondensatlarning xususiyatlari kon xududi bo'yicha o'zgaradi. Bu hodisalar vertikal zonalilik bilan bog'liq. Vertikal zonalilik asosiy omillar, ya'ni bosim, harorat, suvlarning dinamik va kimyoviy faolligi, yemirilish bilan bog'liqdir. Ularning ta'sirida uyumlardagi neft, gaz va kondensatlar o'zgarishi mumkin.

Chuqurlikning ortishi hamda mahsuldor qatlamlarning yoshi ulg'ayishi ularning zichligi, qovushqoqligi, ular tarkibiga kiruvchi uglevodorodlarning davriyligi kamayadi, parafinli neftlarda normal uglevodorodlarning izomerlarga nisbatan roli ortadi. Neftlarda erigan gaz miqdori ham erkin gazlardagi og'ir fraksiyalar miqdori ham ortadi. Bunday holatlar ko'pgina konlarda kuzatiladi,

A.A.Karsev 250 konni o'rganishi natijasida yuqorida ko'rsatilgan holatlarning 175 konda mavjulichini aniqlagan, 30ta konda esa uning teskarisi kuzatilgan, 45 ta konda aniq bir bog'liqlik kuzatilmagan.

A.A.Karsev va Z.A.Tabasarankiylarning tadqiqotlaridan shuni aniqlash mumkinki bir kon xududida jinslarning geologik yoshi ular tarkibidagi neft va gaz xossalriga deyarlik ta'sir qilmaydi.

Lekin konlarni sinf va sinfchalar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak yuqoridagi fikrdan boshqacharoq holatni ko'rishimiz mumkin. Bularda tog' jinslari yoshining ortishi bilan ular tarkibida mavjud bo'lgan neft va gazlarning xususiyatlari ham o'zgarishi mumkin.

Ko'rsatilgan holatlarni hamda neft va gazga bosim va haroratning yemirilish jarayonining va boshqa ko'plab omillarning ta'sirini o'rgangan xolda N.B.Vassoyevich va G.A.Amosov litosferada neftlarning o'zgarishining prinsipial sxemasini keltiradilar Ularning keltirilishiga gipergenez mintaqasi 750 S gacha bo'lgan oraliqlarda kechadi va bu oraliqda asosan mikrobiologik omil katta rol uynaydi[36].

Lekin keltirilgan prinsipial sxema bosimning chuqurlik ortishi bilan o'zgarishini inobatga olmaydi.

Bosimning ortishi natijasida (kritik bosimgacha) gaz holatidan suyuqlik holatiga avvalo og'ir uglevodorodlar o'tadi, so'ngra esa yengilroqlari o'ta boshlaydi. Shuning natijasida chuqurlik ortishi bilan gaz qopqog'ida yengilroq gazlar to'planadi. Bunga misol tariqasida Farg'ona vodiysidagi Polvontosh konini keltirish mumkin. Kritik bosim haroratga yetishgach yuqoridagi jarayon aksincha holatga aylanadi. Bosim ortishi bilan og'ir uglevodorodlar gazga aylanadilar, gaz natijada "yog'li" bo'la boshlaydi. Bunga misol tarikasida Farg'ona vodiyyidagi Izboskent konini keltirish mumkin.

Bir biriga ancha yaqin joylashgan Izboskent va Polvontosh konlarida bir xil qatlamlardagi yo'ldosh gazlarning o'zgarishidagi qarama-qarshilikni kuzatish qiziqarlidir. Lekin yo'ldosh gazlarda bu ikki konda mavjud bo'lgan nomuvofiqlik o'sha bir xil gorizontlarning turli chuqurlikda joylashganligi boisdir. Chunonchi

Polvontosh konida VI-VII- gorizontlar 300-600 m chuqurlik oralig'ida joylashgan, Izboskent konida esa ularning chuqurligi 1200-1600m ni tashkil etadi. Bunday nomuvofiqliklarning kelib chiqishini boshqa katta kon xududida ham kuzatish mumkin.

Evaporit tog' jinslar orasida osh tuzi qatlamlari va angidritlar bosim ostida oquvchanlik xususiyatiga ega bo'lganliklari uchun (ayniqsa osh tuzi) ularda o'tkazuvchanlik mutlaqo bo'lmaydi. Olamga mashhur Asmari kollektorlarining (Eron, Iroq) qopqog'i sifatida 50-60 m qalinlikka ega bo'lgan evoporitlar xizmat qilgandir. Bunday holat Jazoirdagi gigant konlar Xei-Meaud va Xei R-Melda ham kuzatiladi. Yurtimizdagi Buxoro-Xiva neftgazli xududidagi konlarga ham evoporit jinslar saqlagich vazifasini o'tagandirlar.

Aksariyat xollarda ma'lum darajada saqlagich rolini o'ynagan jinslar ularda yoriqlik jarayonining ikkilamchi rivojlanish holati ro'y berganligi tufayli kollektorga aylanib qolganliklari kuzatiladi. Bunday holatlar G'arbiy Sibirda, Karnatda hamda Shebelinka koni va boshqa joylarda uchraganligi kuzatilgan.

Mavjud konlarda saqlagich vazifasini o'tagan jinslarning ularning ko'lamini, tutgan o'rni va ahamiyatini o'rgangan olimlardan E.A. Bakirov ular tasnifini tuzgan. Olim o'z ko'лами jihatdan butun neft gazli o'lkaga tarqalgan, yoki uning ko'pchilik qismini egallagan hamda amalda flyuidlarni (gaz va suyuqliklar aralashmasi) mutlaqo o'tkazmaydigan qatlamlarni ulkaviy flyuid saqlagich deb nomlashgan. Bunga misol tariqasida Alb yotkiziklaridagi gillar)ni keltirish mumkin.

Sub o'lkaviy flyuid saqlagich birinchi tartibli amalda flyuidlarni o'tkazmaydigan butun bir tektonik element xududida joylashgan qatlamlarni keltirish mumkin. Bunga misol qilib Amudaryo, Murg'ob va Sharqiy Kuban botiqligida ular mavjud yuqori yura tuz yotqiziqlarini keltirish mumkin.

Mintaqaviy flyuid saqlagichlar qatoriga kattagina qalinlikka ega bo'lgan hamda amalda flyuidlarni o'tkazmaydigan ikkilamchi tartibdagi tektonik elementlarning xududini qoplagan yoki butun bir katta xududning bir qismini egallagan yotqiziklarni kiritish mumkin.

Sanoat ahamiyatiga molik flyuid saqlagichlar qatoriga bir va bir necha yaqin joylashgan konlar xududida mavjud bo'lgan flyuid o'tkazmaydigan tog' jinslarini kiritiladi. Bunday yotqiziqlar muayyan konlardagi neft va gaz uyumlarini saqlashda xizmat qilgan bo'ladilar.

Chunonchi bir necha qavat bo'yicha barqaror bo'lgan flyuid saqlagichlar bir katta xududning bir necha qavatlarida o'z vazifalarini "bajargan" bo'lsalar, qavatlar aro flyuid saqlagichlar har bir gorizontdagi neft va gaz uyumining hosil bo'lishida xizmat qilganlar.

Shuni alohida qayt qilmoq lozimki barqaror va katta xududni egallagan flyuid saqlagichlar asosan dengiz tubida hosil bo'lgan tog' jinslaridan tashkil topgan bo'ladi. Kontinental va sayoz suv xavzalarida evaporit qatlamlari paydo bo'ladi.

1.3. Neft va gaz konlarini loyihalashtirish usullarini vujudga kelishi va rivojlanishi

XX asr boshlarida yer bag'ridan mahsulot qazib chiqarish konlarni tabiiy usulda tartibsiz ishlash bilan olib borilgan. U davrlarda neft va gaz olishning ilmiy asoslari hali paydo bo'lmagan edi, lekin har xil muammolar bilan foydali qazilmalarni paydo bo'lishidan boshlab, geologiya va qidiruv, transport, qayta ishlash va foydalanishgacha katta olim va muhandislar, shular jumlasidan D.I.Mendeleyev, A.M.Butlerov, I.M.Gubkin, V.G.Shuxovlar shug'ullanganlar [7, 14, 26, 33,43].

Hatto XX asrning 20 yillarida ham loyihalashtirishda qatlamlar va ulardan uglevodorodlarni chiqarib olish jarayoni fizikasi va mexanikasi xaqida ham ma'lum bo'lmagan yoki ko'pgina asosiy boshlang'ich tushunchalardan foydalanilmagan. Garchi sirqishning asosiy qonuni 1856 yilda suvning suv tozalash inshootlari suzgichlarida harakatini o'rganish davomida fransuz muhandisi Anri Darsi tomonidan ochilgan bo'lsa ham neft va gazning barqaror va beqaror sirqishning tenglamasini neft va gaz konlarini ishlashni loyihalashtirishda faqatgina 30 - chi yillardagina foydalana boshlandi.

Neft va gaz konlarini ishlashni loyihalashtirish nazariyasida neft va gaz konlarini ishlatish usullari haqidagi ta'limotga asos bo'lgan neft va gazni quduqlar tubiga harakatlantiruvchi asosiy kuchlarni o'rnatilishi bo'ldi. Bu ta'limotni yaratishda I.M.Gubkin, L.S.Leybenzon, I.N.Strijov, A.P.Krshov, S.A.Xristianovich, F.A.Trebin, B.B.Lapuk, I.A.Charnsh, V.N.Shelkachev, CH.Massket, Vikovich, Batset, Leverett kabi olimlar katta hissa qo'shdilar. 30-chi yillar o'rtalarida neft konlari ishlash tarz (rejim) lari nazariyasi bir muncha rivojlandi, neft qatlamlarini taranglik va erigan gaz tarzlari zamonaviy nazariyasiga asos qo'yildi. Shuni ta'kidlash lozimki, 20-chi yillardayoq L.S.Leybenzon tomonidan gaz sirqishining differensial tenglamalari olingan va shu bilan gaz konlarini ishlash nazariyasiga asos solingan .

20-chi va 30-chi yillar neft konlarini ishlashni bashoratlash asosan ishlashni boshlang'ich davrida olingan ishlash ko'rsatgichlarini vaqtga nisbatan empirik bog'liqliklarini ko'rish yo'li orqali bu ko'rsatgichlarni statistik qayta ishlash va ularni kelajakka ekstrapolyatsiyalash bilan bajarilgan.[12-22]

Bu vaqtga kelib Tersagi, N.YE.Jukovskiy, N.N.Pavlovskiy tomonidan bir muncha rivojlantirilgan sirqish nazariyasining matematik usullari neft va gaz sohasida hali qo'llanilmas edi. Konlarni ishlashni loyihalashtirishda sirqish nazariyasi usullarni rivojlantirish va foydalanishga amerika olimi CH.Massketning ishlari muhim tarzda imkon berdi .[11, 19, 45] .

Neft gaz konlarini ishlashni alohida ilm va o'qitiladigan fan sifatida shakllanishida A.P.Krilov, M.Mglogovskiy, M.F.Mirchinka, N.M.Nikolayskiy va I.A.Charniyning 1948 y. da chiqqan «Neft konlarini ishlashni ilmiy asoslari» asari hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Bu ishda neft konlarini ishlashni asosiy tamoyiliking birinchi tartibi (ta'rifi) berilgan edi, yer osti gidromexanikasining qator muhim savollari yechilgan, neft konlarini ishlash haqidagi ilm esa neft geologiyasi va geofizikasi, yer osti gidrodinamikasi, quduqlarni ishlatish va amaliy iqtisod yutuqlaridan foydalanuvchi bilimning jamlan-gan sohasi sifatida tasvirlangan [23] .

40-chi yy. ning oxiri va 50-chi yy. da aralash tarzlar - suv tazyiqi va erigan gaz tarzlarida neft konlarini ishlash muammosini yechish bir muncha oldinga siljitildi. Quduqlarni gidrodinamik tadqiqotidan foydalanish bilan qatlam ko'rsatgichlarini aniqlash usullari jadal rivojlana boshladi. Extimollik-statistika modellarini qo'llash bilan neft konlarini ishlashni hisoblash uchun uslubiy asoslar yaratildi. Neft qatlamlarila sirqishda turlilikni bevosita hisobga olish usullari ham mukammallashdi.

50 yy. da neft qatlamlarining yangi modullari (yoriqli va yoriq-g'ovakli), shuning bilan birga neft' konlarini ishlashni tahlil qilish va muvoffiqashtirishni yangi usullari paydo bo'ldi va rivojlana boshladi. Ularni ishlash tizimlarini o'zi ham bir muncha rivojlandi. Ma'lum maydoniy tizimlar bilan birga avval, konni chegara ichidan haydovchi quduqlar bilan kesish va oluvchi quduqlarni kesish chizig'i bo'ylab joylashtirish, undan keyin zamonaviy bo'lakli-qatorli tizimlar paydo bo'ldi.

50 yy. ning oxiri 60 yy. ning boshida kuchli deformatsiyalanadigan tog' jinslari sharoitida ishlanayotgan chuqur neft konlarini tadqiqot qilish boshlandi.

Neft va gaz konlarini ishlashni loyihalashtirishni rivojlanishi murakkab matematik usullardan va hisoblash vositalaridan foydalanishni talab qilar edi. 30 - 50 yy. da hisoblashlarda asosan yer osti gidrodinamikasining aniq va yaqinlashtirilgan misollaridan foydalanilgan bo'lsa, 50 chi yy. ning oxiri va 60 chi yy. da sizish misollarini yechishning soniy usullari qo'llanila boshlandi.

50 chi yy. ning va 60 chi yy. ning boshida qatlamga issiqlik tashuvchilarni haydash va qatlam ichra yonishni qo'llash bilan bog'lik bo'lgan, neft konlarini ishlashni issiqlik usullarini asosi bo'lib xizmat qilgan, boshlang'ich tadqiqotlar o'tkazildi va muhandislik yechimlari beriddi.

Shu yillarda butun dunyoda yer bag'ridan neft olishning fizik-kimyoviy usullarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Neftni uglevodorodli erituvchilar, uglerod ikki oksidi, polimer va mitselyar-polimer eritmalar bilan siqish amaliy-uslubiy asos oldi [15,35, 42].

Neft konlarini ishlashni murakkab jarayonlarini hisoblash nafaqat qatlamdagi ko'p fazali oqimlarni hisobga olishni, balki ularning ko'p komponentligini, fazaviy o'tishlarini, qatlamda sizuvchi moddalarning xususiyatlarini o'zgaruchanligini, shuning bilan birga ko'p fazali ko'p komponentli sizish nazariyasidan ham foydalanishni talab qildi.

1-bob bo'yicha xulosalar.

- Hozirgi paytda neft va gazning g'ovak muhitlardagi filtratsiyaga doir bir qancha nazariy tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular qatlarda sodir bo'ladigan filtratsiya jarayonlarini to'liq yoritib olmaydilar. Filtratsiyaning aniq parametrlarini olish uchun nazariy tadqiqotlardan tashqari kon qallamlarida eksperimental tadqiqotlar ham o'tkazilishi lozim.

-Gaz sarfining bosim gradiyentiga bog'liqligining chiziqli xarakteri o'rnatilgan. Tog' jinslari kuchlanish-deformatsiyali holatlari o'zgarishida NGD effektining hosil bo'lish sharoitlarida gaz filtratsiyasining xususiyatlari chuqur o'rganilgan. Effektiv bosimning oshishi bilan NGD kattaligining ortishi va tadqiqot o'tkazilgan bosim gradiyentlarining diapozonlarida gaz o'tkazuvchanlik kamayishi kuzatiladi.

- Kon tadqiqotlari ma'liyotidan ma'lumki indikator to'g'ri chizig'i va bosim tiklanish egri chiziqlaridan aniqlanadigan qatlam o'tkazuvchanligi va suyuqlik o'tkazuvchanligi, ko'p hollarda bir-birlaridan sezilarli darajada farqlanishlari ilmiy asoslab berilgan.

- Hozirgi vaqtda yangi neft va gaz konlarini loyixalashtirish va ishlatishda, hamda quduqlardan foydalanishda filtratsiya qonunlarini qo'llamasdan tasavvur etib bo'lmaydi. Berilgan qatlamda quduqlarni qanday joylashtirish kerak; qatlamga nechta quduq va ular qanday ketma- ketlikda kiritilishlari kerak; ularda qanday ish rejimini saqlab turish kerak; bosimni saqlab turish uchun qatlamga qancha miqdorda suv haydash kerak; qatlamga suyuqlik yoki gaz harakatini yo'naltirish va rostlash kerak, bular va bunga o'xshash ko'pgina savollar filtratsiya qonuniyatlari asosida yechiladi.

2.SIQILUVCHAN SUYUQLIK VA GAZNING G'OVAK MUHITDAGI BARQAROR VA NOBARQAROR FILTRATSIYALARINI MODELLASH (nazariy asoslash)

2.1.Darsi qonuni bo'yicha siqiluvchan suyuqlik va gaz barqaror filtratsiyasining differentsial tenglamasi.

Bir jinsli g'ovak muhitdagi bir fazali siqiluvchan flyuid barqaror filtratsiyasining differentsial tenglamalarini yozamiz va bunda og'irlik va inertsia kuchlarini e'tiborga olmaymiz:

a) oqim uzluksizligi tenglamasi

$$\frac{\partial(\rho v_x)}{\partial x} + \frac{\partial(\rho v_y)}{\partial y} + \frac{\partial(\rho v_z)}{\partial z} = -\frac{\partial(\rho \cdot m_m)}{\partial t}; \quad (2.1)$$

b) harakat tenglamasi

$$\left. \begin{aligned} v_x &= -\frac{k}{\mu} \cdot \frac{\partial p}{\partial x} \\ v_y &= -\frac{k}{\mu} \cdot \frac{\partial p}{\partial y} \\ v_z &= -\frac{k}{\mu} \cdot \frac{\partial p}{\partial z} \end{aligned} \right\} \quad (2.2)$$

$\wp$ funksiyani quyidagicha kiritamiz. Uning differentsialini

$$d\wp = \frac{k(p)\rho(p)}{\mu(p)} d(p) \quad (2.3)$$

deb qarasak, u holda

$$\wp = \int \frac{k(p)\rho(p)}{\mu(p)} d(p) + C \quad (2.4)$$

bo'ladi. Bu funksiya L.S. Leybenzon funksiyasi deb ataladi. Leybenzon funksiyasi $\wp$ va bosim p koordinatalarga va vaqtga bog'liq bo'lgani sababli, ko'p o'zgaruvchan funksiyalarining to'liq differentsiali tushunchasidan foydalangan holda (2.3) tenglamani quyidagi ko'rinishida yozish mumkin:

$$\frac{\partial \wp}{\partial x} dx + \frac{\partial \wp}{\partial y} dy + \frac{\partial \wp}{\partial z} dz + \frac{\partial \wp}{\partial t} dt = \frac{k(p)\rho(p)}{\mu(p)} \left(\frac{\partial p}{\partial x} dx + \frac{\partial p}{\partial y} dy + \frac{\partial p}{\partial z} dz + \frac{\partial p}{\partial t} dt \right)$$

dx, dy, dz, dt larda koeffitsientlarni taqqoslash natijasida

$$\left. \begin{aligned} \frac{\partial \wp}{\partial x} &= \frac{k(p)\rho(p)}{\mu(p)} \cdot \frac{\partial p}{\partial x}; \\ \frac{\partial \wp}{\partial y} &= \frac{k(p)\rho(p)}{\mu(p)} \cdot \frac{\partial p}{\partial y}; \\ \frac{\partial \wp}{\partial z} &= \frac{k(p)\rho(p)}{\mu(p)} \cdot \frac{\partial p}{\partial z}; \\ \frac{\partial \wp}{\partial t} &= \frac{k(p)\rho(p)}{\mu(p)} \cdot \frac{\partial p}{\partial t}, \end{aligned} \right\} \quad (2.5)$$

hosil qilamiz.

(2.2) harakat tenglamasini $\rho(p)$ flyuidlar zichligiga ko'paytirib va (2.2) tenglamadan foydalanib, filtratsiyaning massali tezliklari ifodasini yozamiz:

$$\left. \begin{aligned} \rho v_x &= -\rho \frac{k}{\mu} \cdot \frac{\partial P}{\partial x} = -\frac{\partial \wp}{\partial x}; \\ \rho v_y &= -\rho \frac{k}{\mu} \cdot \frac{\partial P}{\partial y} = -\frac{\partial \wp}{\partial y}; \\ \rho v_z &= -\rho \frac{k}{\mu} \cdot \frac{\partial P}{\partial z} = -\frac{\partial \wp}{\partial z}. \end{aligned} \right\} \quad (2.6)$$

(2.6) ifodani (2.1) uzluksizlik tenglamasiga qo'yib

$$\frac{\partial^2 \wp}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \wp}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \wp}{\partial z^2} = \frac{\partial(\rho m)}{dt}, \quad (2.7)$$

yoki

$$\nabla^2 \wp = \frac{\partial(\rho m)}{dt} \quad (2.8)$$

ifodani hosil qilamiz.

(2.7) va (2.8) differentsial tenglamalar Darsi qonuni bo'yicha bir jinsli g'ovak muhitdagi bir jinsli flyuidning nobarqaror harakatida o'rinli bo'ladi.

Barqaror filtratsiya holatida $\partial(\rho m)/dt = 0$ va (2.7) tenglama ushbu

$$\frac{\partial^2 \wp}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \wp}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \wp}{\partial z^2} = 0 \quad (2.9)$$

Yoki

$$\nabla^2 \wp = 0$$

ko'rinishga ega bo'ladi.

Shunday qilib, barqaror filtratsiyada (2.4) tenglama bilan aniqlanadigan « $\wp$ » Leybenzon funksiyasi Laplas tenglamasini qanoatlantiradi.

Tenglamaga Leybenzon funksiyasining kiritilishi siqilmaydigan flyuid barqaror filtratsiyasi bilan siqilmaydigan suyuqlik barqaror filtratsiyasi o'rtasida analogiyani o'rnatish mumkin.

Flyuidlarda muhitning o'zgaruvchanligi va dinamik qovushoqlik koeffitsientlari o'zgarmas:

$$k = const, \mu = const, \text{ zichlik } \rho = \rho(p). \quad (2.10)$$

U holda Leybenzon funksiyasi

$$\wp = \int \rho(p) dp + C \quad (2.11)$$

deb kiritish mumkin va bunda

$$d\wp = \rho(p) dp. \quad (2.12)$$

Bizga ma'lumki, Darsi qonunini

$$v = -\frac{k}{\mu} \cdot \frac{\partial P^*}{\partial S}.$$

ko'rinishida yozgandik.

Bu Darsi qonuni bo'yicha siqilmaydigan suyuqlikning barqaror filtratsiyasini sarf orqali yozamiz:

$$Q = -\frac{k}{\mu} \cdot \frac{dP}{dS} \omega(S), \quad (2.13)$$

bu yerda $Q = const$; $\omega(s)$ - oqimcha chizig'ining ko'ndalang kesim yuzasi.

Siqiluvchan flyuidning barqaror **filtratsiyasining** hamma oqim chiziqlari uzunligi bo'yicha massali sarfi o'zgarmas bo'lib saqlanadi:

$$Q_m = \rho Q = const.$$

(2.13) tenglamaning o'ng va chap tomonlarini $\rho(p)$ flyuid zichligiga ko'paytirib va (2.12) ifodadan foydalanib,

$$\rho \cdot v Q_m = -\frac{k}{\mu} \cdot \rho(p) \frac{dP}{dS} \cdot \omega(S) = -\frac{k}{\mu} \cdot \frac{d\wp}{dS} \omega(S), \quad Q = const \quad (2.14)$$

ekanligini hosil qilamiz.

(2.13) va (2.14) ifodalardan ko'ramizki, **bular** bir xil ko'rinishdagi differentsial tenglamalar bo'lib, **bularda** Q siqilmaydigan suyuqlik hajmiy sarfiga siqiluvchan suyuqlikning massali sarfi mos, (2.13) tenglamadagi p bosimga esa (2.14) tenglamadagi φ Leybenzon funksiyasi mos bo'ladi. Bu analogiyaning isboti sifatida siqiluvchan flyuidning barqaror filtratsiyasida (2.9) Laplas tenglamasini φ Leybenzon (2.11) funksiyasi qanoatlantirishini, siqilmaydigan suyuqlikning analogik filtratsiyasida esa bu tenglamani bizga ma'lum

$$\frac{\partial^2 p}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 p}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 p}{\partial z^2} = 0$$

tenglamadagi p bosim qanoatlantirishi mumkinligini keltirish mumkin.

Siqilmaydigan suyuqlik uchun (2.2) harakat tenglamasi ν filtratsiya tezligini p bosim bilan bog'laydi, siqilmaydigan flyuidlarga esa $\rho\nu$ filtratsiya massa tezliklarini (2.6) tenglamadagi φ Leybenzon funksiyasi bilan bog'laydi.

Bulardan shuni xulosa qilish mumkinki, Darsi qonuni bo'yicha siqilmaydigan suyuqlikning barqaror **filtratsiyasidagi** hosil qilingan formulalarni, siqiluvchan flyuid barqaror filtratsiyasi uchun ham (qatlam o'sha geometriyasi va o'sha chegaraviy shartlarda) foydalanish mumkin.

2.1-jadval

Siqilmaydigan suyuqlik	Siqiluvchan flyuid
1. Hajmiy sarf, Q ; 2. bosim, p ; 3. filtratsiya hajmiy tezligi, ν .	1. Massali sarf, Q_m ; 2. Leybenzon funksiyasi, φ ; 3. filtratsiya massa tezligi, $\rho\nu$.

Siqiluvchan flyuid filtratsiyasida p bosim deb absolyut bosimni tushunish kerakligini ta'kidlaymiz.

Siqiluvchan suyuqlikning barqaror filtratsiyasi.

Siqiluvchan suyuqlikning ushbu

$$\rho = \rho_0 e^{\beta_c (p - p_0)}$$

holat tenglamasi bilan ifodalanuvchi siqiluvchan (kam siqiluvchan) suyuqlik uchun Leybenzon funksiyasini aniqlaymiz:

$$\wp = \int \rho dp + C = \int \rho_0 e^{\beta_c(p-p_0)} dP + C = \frac{\rho_0}{\beta_*} e^{\beta_c(p-p_0)} + C = \frac{\rho}{\beta_*} + C \quad (2.15)$$

Agar $\beta_c(p-p_0) \ll 1$ bo'lsa, u holda

$$\rho = \rho_0 [1 + \beta_c(p-p_0)]$$

ko'rinishidagi siqiluvchan suyuqlikning holat tenglamasiga ega bo'lish mumkin.

Unda (2.15) tenglamadan

$$\wp = \frac{\rho_0}{\beta_c} [1 + \beta_c(p-p_0)] + C = \rho_0 p + C_1 \quad (2.16)$$

ifodani hosil qilamiz.

(2.16) ifodani (2.9) differentsial tenglamaga qo'yib,

$$\nabla^2 \wp = \nabla^2 (\rho_0 p + C_1) = \rho_0 \nabla^2 p = 0 \quad (2.17)$$

tenglamani hosil qilamiz. Siqiluvchan suyuqlikning barqaror filtratsiyasidagi zichligini o'zgarmas deb hisoblash mumkinligini ko'ramiz. Bundan kelib chiqadiki, siqiluvchan suyuqlikning barqaror filtratsiyasi bilan bog'liq amaliy masalalarni yechishda, siqilmaydigan suyuqlikning barqaror filtratsiyasi uchun keltirib chiqarilgan formulalardan foydalanish mumkin. Lekin, agar siqilmaydigan suyuqlik filtratsiyasi qatlamdagi juda katta qatlam bosimlarida va katta depressiyalarda qaraladigan bo'lsa, bunday xulosa chiqarish noto'g'ri bo'lishi mumkin. Bu holda (2.16) ifoda umuman olganda, katta xatoliklarga olib keladi, shuning uchun (2.15) ko'rinishdagi Leybenzon funksiyalaridan foydalaniladi.

Darsi qonuni bo'yicha ideal gazning tekis radial filtratsiya oqimi.

Markazida r_c radiusli mukammal quduq joylashgan, radiusi R_k bo'lgan qatlam doirasida tekis radial filtratsiya oqimi sodir bo'ladi. Bunday gaz oqimi xarakteristikalarini, o'xshash siqilmaydigan suyuqlik xarakteristikalarini bilgan holda topamiz. Bunda izlanadigan xarakteristikalar 2.1-jadvalda ko'rsatilgan Siqilmaydigan suyuqlikdagi qatlam **bosimining** taqsimlanishi ushbu

$$\wp_2 = p_c - \frac{p_k - p_c}{\ln \frac{R_k}{r_c}} \ln \cdot r_c = p_c - \frac{p_k - p_c}{\ln \frac{R_k}{r_c}} \ln R_k$$

formuladan aniqlanadi, ya'ni



$$p = p_c - \frac{p_k - p_c}{\ln \frac{R_k}{r_c}} \ln \frac{R_k}{r} \quad (2.18)$$

